

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDIY DAROMADLARNI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Yunusova Sohiba Abdulmamidovna

*Namangan davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Hozirgi globallashuv davrida turizm sohasi qo'llab-quvvatlash uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan biriga aylanib ulgurdi. Ajoyib tabiat manzaralarini taqdim etishdan tashqari, turizm hayotning turli jabhalariga, jumladan, qo'shimcha daromad topish orqali hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirish, bandlik imkoniyatlarini ko'paytirish, mintaqaviy madaniyatni va infratuzilmani rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turizm sohasida iqtisodiyotni daromad keltiradigan qirralarini ochish va investitsiya jalb etish yo'llarini rag'batlantirish orqali erishish mumkin bo'ladi.

Turizmni rivojlantirish maqsadida mamlakatda nafaqat iqtisodiy kapital va jismoniy kapital, balki ijtimoiy kapital ham zarur. Turizmni rivojlantirishda turistik maskanlar, infratuzilma va ijtimoiy kapital hududlarda potensial daromadlarni oshirishga xizmat qiladi. Ayni damda turizm sohasi mintaqa iqtisodiyoti rivojini qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlardan biridir.

Turizmni rivojlantirish omillari va hududiy o'sish o'rtasidagi munosabatlar ilmiy adabiyotda ko'p muhokama qilingan[1]. Neoklassik va endogen o'sish nazariyalari tomonidan aniqlangan an'anaviy o'sish omillariga qo'shimcha ravishda (ya'ni, jamg'arma stavkalari, aholi dinamikasi, hududning turistik imkoniyatlari, jismoniy kapital to'planishi, inson kapitali va texnologik imkoniyatlar), mintaqaviy va mahalliy rivojlanishga qo'shilayotgan hissalar soni, mintaqaviy iqtisodiy o'sishni kuchaytirishi mumkin bo'lgan qo'shimcha omillar va turistik infratuzilmani va boshqalarni keltirish o'rinli bo'ladi [2].

O'zbekiston turizm sohasida rivojlanishi uchun yetarlicha salohiyatga ega mintaqalardan biri hisoblanadi, tabiiy diqqatga sazovor joylar va sun'iy turizm ob'yektlari orqali rivojlantirish mumkin, har ikkalasi ham o'ziga hos xususiyatlarga ega. Ushbu masalalarni o'rganishda ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. Ushbu tadqiqotlar turistik diqqatga sazovor joylarni salohiyati va rivojlanishi uchun to'siqlarning mavjudligi, mintaqalarda daromadning rivojlanishi va salohiyatini oshirishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlashdan iborat.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishni ikki yo'nalishga ajratish mumkin bo'ladi:

1) Birinchidan, hududlarda turizmni rivojlantirish uchun asosiy yo'lak tabiiy turizm salohiyatini o'z ichiga oladi, masalan O'zbekistonning barcha hududlarida o'ziga hos bo'lgan turizm turlari rivojlantirish uchun tabiiy resurslar yetarlicha, urf-odatlar va madaniyatlar, tarixiy yodgorliklar, ziyoratgohlar kabi turli tarixiy joylar orqali;

2) Ikkinchidan, turizmini rivojlantirish hududi sifatida sun'iy turizm salohiyatini o'z ichiga oladi, savdo markazlari, ko'ngilochar joylar va turli xil sun'iy turistik ob'yektlar va hunarmandchilik suvenerlar savdosi orqali amalga oshirish imkoniyati mavjud.

O'zbekistonda turizm sohasining ustunligi quyidagi ob'yektlar misolida ko'rinadi: Xususan, Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlarida tarixiy obidalarning mavjudligi sababli aynan turizm shu hududlarda rivojlangan. Masalan Registon maydoni, Go'ri-Amir maqbarasi, Bibixonim jome masjidi, Afrosiyob shaharchasi, Shohi Zinda maqbaralar majmui, Ulug'bek rasadxonasi, Hazrati Dovud ziyoratgohi, Imom al-Buxoriy maqbarasi, Siyob bozori. Buxorodagi 7 ta – Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Bakr, Bahouddin Naqshband majmualari, Mag'oki Attor masjidi, Poi-Kalon ansambli, Qadimgi Poykent shahri qoldiqlari va Tosharoy madrasalari bu obidalarning ICYeSCOning Islom Olami Merosi ro'yxatiga kiritilganligi, Xorazm viloyatidagi Ichan qal'a, Kalta minor, Juma masjidi Shayx Qalandar bobo majmuasi, Sherqo'zixon madrasasi, Paxlavon Mahmud maqbarasi va majmuasi, Dishan Qal'a, Olloqulixon madrasasi, Olloqulixon karvonsaroy inshooti, Muhammad Aminxon madrasasi va shunga o'xshash ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin.

Hududiy daromadlar - bu mahalliy soliqlar va yig'imlar elementlariga tayanadigan hududlarning moliyaviy imkoniyatlarining umumiy ko'rinishi. Hududiy mahalliy soliq tushumlari, mahalliy yig'imlar, ajratilgan hududiy boylklarni boshqarishdan iborat daromadlar, boshqa qonuniy mahalliy daromadlar.

Hududiy daromadlar tengsizligini kamaytirishda turizmni rivojlantirish katta ahamiyatga ega bo'lib ularga quyidagilarda ko'rinadi: [3]

Birinchidan, turizmning hududiy daromadlar tengsizligiga qanday ta'sir qilishining tahlili o'rganiladi.

Ikkinchidan, turizmni rivojlantirish shartli zaruriy omil sifatida rivojlanish tezligi hududiy turizm rivojlanishi bilan tezlashayotganligi yoki umuman bogliq emasligi o'rganiladi.

Uchinchidan, xalqaro va ichki turizmning hududiy tengsizlikni kamaytirishga ta'siri global va mahalliy miqyosda o'rganilishi lozim bo'ladi. Izlanishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, turizm rivojlanishi mintaqaviy tengsizlikni kamaytirishga sezilarli hissa qo'sha oladi, hatto ichki turizm xalqaro turizmga qaraganda ko'proq hissa qo'shish imkoniyatiga ega.

Yuqoridagi jarayonda har bir hududlar turizm sektori hududning daromadlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi. Xususan, sohani rivojlantirish uchun davlat tomonidan mamlakatga tashrif buyuruvchi turistlarga shart-sharoit yaratib berish, turistik ob'yektlarning mavjud resurslari sifatini yanada oshirish, turistlarni xavfsizligini oshirish choralarini ko'rishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Turizmni rivojlantirishning yana bir sababi shundaki, u mintaqadagi iqtisodiy farovonlikni oshirishga katta hissa qo'shadi, turizm orqali rivojlanish ta'sirini yanada real ko'rinishga olib keladi. Masalan oshpazlik ishi, restoran ishi

xodimlari o'rinlarini yaratish, esdalik sovg'alari savdosi, ekskursiya rahbarlari faoliyati va boshqalarni keltirish mumkin bo'ladi.

Turizm orqali hududlarning iqtisodiy manfaatlari yuksalib boradi, ishlab chiqarish salohiyati ortadi, infratuzilma ob'ektlarining rivojlantirish va takomillashtirish va ayniqsa tabiiy turizm va madaniy turizmni qo'llab-quvvatlash mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki turizm sohasini rivojlantirish orqali hududiy daromadlarni oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) Turistik ob'ektlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, investitsiya xajmini oshirish;

2) Turizm sohasida kichik biznes va hususiy tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

3) Infratuzilma va marketingni yaxshilash;

4) Salohiyati mavjud ob'ektlar uchun maxsus turizm dasturlarini amalga oshirish;

5) Hududlarni sayyohlik maskani sifatida targ'ib qilish va reklama agentliklari strategiyalarini ko'proq sayyohlarni jalb qilish va diqqatga sazovor joylarni diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

6) Sohada davlat va xususiy sherikchilik mexanizmini qo'llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Camagni, R., & Capello, R. (2010). *Macroeconomic and territorial policies for regional competitiveness: an EU perspective. Regional Science Policy and Practice*, 2(1), 1–19. <https://doi.org/10.1111/j.1757-7802.2010.01016.x>

2. Calderón, C., & Servén, L. (2004). *The effects of infrastructure development on growth and income distribution. World Bank Publications*. <https://doi.org/10.1596/1813-9450-3400>

3. Hengyun Li, Jason Li Chen, Gang Li *Tourism and regional income inequality: Evidence from China, Annals of Tourism Research, Volume 58, May 2016, Pages 81-99.*